

## O‘SMIRLIK DAVRIDA O‘Z-O‘ZIGA NISBATAN ISHONCH VA O‘Z-O‘ZIGA BO‘LGAN MUNOSABATNING O‘ZARO ALOQADORLIK XUSUSIYATLARI

*Dusmuxeimedova Shoirra Akbarovna,*

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasi dotsenti,  
psixologiya fanlari nomzodi*

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.066>

*Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga nisbatan ishonch, uning mazmunini ta’riflash uchun qo‘llaniladigan psixologik kategoriya, shuningdek, o‘smirlarning o‘ziga ishonchi va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatning o‘zaro aloqadorlik xususiyatlari bo‘yicha olib borilgan empirik tadqiqot natijalari yoritilgan.*

*Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, o‘z-o‘ziga nisbatan ishonch, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat, shaxs xususiyatlar, o‘zini anglash, shaxs o‘zini o‘zi boshqarish malakasi.*

## ОСОБЕННОСТИ ВЗАИМОСВЯЗИ УВЕРЕННОСТИ В СЕБЕ И ОТНОШЕНИЯ К СЕБЕ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

*Дусмухамедова Шоира Акбаровна,*

*доцент кафедры Психология религии и педагогика УЗМИА, кандидат психологических наук*

*Аннотация: В данной статье освещены результаты эмпирического исследования уверенности в себе в подростковом возрасте, психологическая категория, используемая для описания ее содержания, а также особенности взаимосвязи уверенности в себе и самооотношения подростков.*

*Ключевые слова: Подростковый возраст, уверенность в себе, самооотношение, личные качества, самосознание, навыки личного самоконтроля.*

## FEATURES OF THE RELATIONSHIP BETWEEN SELF-CONFIDENCE AND SELF-ATTITUDE IN ADOLESCENCE

*Dusmukhamedova Shoirra Akbarovna,*

*Associate Professor of the Department of Psychology of Religion and pedagogy” UZMIA  
Candidate of Psychological Sciences*

*Abstract: This article highlights the results of an empirical study of self-confidence in adolescence, the psychological category used to describe its content, as well as the features of the relationship between self-confidence and self-attitude of adolescents.*

*Key words: Adolescence, self-confidence, self-attitude, personal qualities, self-awareness, personal self-control skills.*

**Kirish.** Respublikada olib borilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari barkamol avlod kamolati yo‘lida amalga oshirilayotgan vazifalar shaxsning o‘zligini anglab etishi, o‘z ustida muttasil ish olib borib, iqtidori va salohiyatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Yoshlarining iymon e‘tiqodlarini mustahkamlash, irodasini mustahkam qilish, ularni mustaqil fikrga ega bo‘lgan barkamol insonlar qilib tarbiyalash muhim vazifalardan biridir hisoblanadi. Zamonaviy psixologiyada insonning o‘ziga bo‘lgan munosabatini aniqlash bo‘yicha umumiy bir yondashuv mavjud emas. Insonning o‘ziga bo‘lgan munosabatiga bag‘ishlangan ishlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, uning mazmunini ta’riflash uchun qo‘llaniladigan psixologik kategoriyalar turlicha. Shu o‘rinda o‘ziga baho berish, o‘zini hurmat qilish, o‘zini qabul qilish, o‘ziga emotsional-qadriyatli munosabat, shunga ishonish, o‘zidan qoniqish hissi va boshqa tushunchalarni keltirish mumkin. Ularning mazmuni ustanovka (D.N.Uznadze), shaxsiy mazmun (A.N.Leontev), munosabatlar (V.N.Myasiщev), attiyud (M.Rozenberg, R.Uayli, S.Kopersmit), ijtimoiy ustanovka (I.S.Kon, N.I.Sardjveladze) hissiyot kabi kategoriyalar orqali yoritib beriladi.

Aniq bir terminologiyaning mavjud bo'lmaganligi tufayli ko'plab mualliflar tomonidan qo'llaniladigan terminlar bir-biridan farqlanmaydi, balki sinonimlar sifatida ishlatiladi.

Adabiyotlar taxlili. Psixologiya fanida ishonch va ishonchsizlik muammolari qator psixolog olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, D.Levis va A.Veygert, S.Robinson, M.Yamagiya, D.Russo, S.Sitkin, R.Bert, K.Kamerer, G.A.Agureeva, I.A.Antonenko, A.Ya.Kibanov, T.A.Nestik, A.V.Filippov, V.A.Denisov, P.N.Shixirev va boshqalar tomonidan o'rganilgan. a

Insonning o'ziga bo'lgan munosabatini mazmunini ochib beruvchi va ko'proq ishlatiladigan kategoriyalarni 4 ga ajratish mumkin: "umumiy" yoki "global o'ziga baho berish", "o'zini hurmat qilish", "o'z-o'ziga bo'lgan munosabat", va "o'ziga nisbatan emotsional-qadriyatli munosabat". O'ziga umumiy baho berish termini G'arb psixologiyasida XIX asrning 60-yillaridan XX asrgacha keng qo'llanilgan, keyinchalik esa o'zini hurmat qilish termini bilan siqib chiqarilgan. Rossiya psixologiyasida insonning o'ziga bo'lgan munosabatini fundamental o'rganish A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, A.G.Spirkin, Ye.V.Shoroxova, I.S.Kon hamda I.I.Chesnokovalardan boshlangan. "O'z-o'ziga bo'lgan munosabat" termini gruziyalik psixolog N.I.Sardjveladze tomonidan kiritilgan.

"O'z-o'ziga bo'lgan munosabat" shaxsning xususiyatlari sifatida uning hayotidagi maqsadlari va faoliyati, qadriyatli yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lib, ta'limning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. O'ziga bo'lgan munosabat shaxs xususiyatlarining boshqa tomonlari, ayniqsa iroda bilan bog'liq. U shaxsning psixologik xususiyatlarining yaxlit tizimini namoyon bo'lish shakllari, tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zini past darajada hurmat qiluvchi inson bu - to'liqsizlik hissiga ega bo'lgan, tashqi ta'sirlarga beriluvchan, boshqa inson bilan real munosabatdan uzilgan kishilardir.

"O'z-o'ziga bo'lgan munosabat" shaxsning mazmunli va dinamik aspektlarining yig'indisi, o'zini emotsional-qadriyatlarini qabul qiluvchi ijtimoiy faollikning mas'uliyatli va tashabbuskor inson deb qabul qilishi kerak.

I.G.Chesnova o'ziga bo'lgan munosabatni o'zini anglash jarayonlariga ta'sirini o'rganib insonlar boshqa odamlarni baholash jarayonida emotsional omillarga tayanishlarini ta'kidlaydi, ammo insonlarning o'zi buni anglamaydilar deydi. I.G.Chesnova tomonidan fanga "o'ziga nisbatan emotsional- qadriyatli munosabat" tushunchasi kiritilgan.

O'ziga bo'lgan munosabat o'zini anglashning affektiv komponenti sifatida shakllanishi 2 darajada amalga oshiriladi. O'ziga bo'lgan emotsional-qadriyatli munosabatning 1- darajasida inson o'zini boshqa odamlar bilan solishtiradi, 2- darajada o'ziga bo'lgan munosabatning shakllanishi ichki dialog orqali "Men-men" chegarasi ichida solishitiriladi. O'zini anglashning bunday etakchi shakli o'zini analiz qilish hisoblanadi.

Psixologiyada o'ziga bo'lgan munosabatning tuzilishi borasida 2 ta bir-biriga qarama-qarshi yondashuv mavjud. Birinchisi, insonning o'ziga bo'lgan munosabati bir tomonlama tuzilgan psixik tuzilma deb qaralsa, ikkinchi yondashuvda murakkab tuzilma deb qaraladi.

O'ziga bo'lgan munosabat va tashqi dunyoga bo'lgan munosabat o'rtasidagi farq faqatgina referentlarda chegaralanadi: agar ayrim hollarda munosabatlar referenti o'zining shaxsiy tanasi yoki psixosotsial va shaxsiy xususiyat aks ettirilsa, boshqa hollarda tashqi dunyoning ob'ektlari yoki boshqa insonlar aks ettiriladi.

O'smirlar guruhida o'ziga nisbatan ishonchni shakllanishiga o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimining ta'sir xususiyatlarini o'rganish maqsadida V.V.Stolin tomonidan ishlab chiqilgan "Shaxsni o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarni aniqlash" metodikasi sinaluvchilar guruhida o'tkazildi hamda quyidagi natijalar qayd qilindi.

Tadqiqot natijalari.

O'smir shaxsida o'ziga nisbatan ishonch hissini o'rganish maqsadida tajriba sinov ishlari amalga oshirildi. Tadqiqot ishida N.Raydasning o'ziga ishonch testidan foydanildi. Tadqiqot metodikasi sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

## 1-jadval

## O‘smirlik davrida o‘ziga nisbatan ishonch hissini namoyon bo‘lishi

Sinaluvchila	juda yuqori	yuqori	o‘rta	past	juda past
8-sinf	16%	21%	36%	20%	7%
9-sinf	19%	24%	31%	18%	8%

Jadval natijalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 8-sinf o‘quvchilarida juda yuqori ko‘rsatkichi 16% va 19% ni tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘z-o‘zini o‘zini juda yuqori baholovchi o‘smirlar juda cheklangan faoliyat doirasini va ahamiyatsiz bo‘lgan muloqotga ko‘proq e‘tibor berishadi. Juda yuqori o‘z-o‘zini hurmat qilish bilan, inson o‘zini va uning imkoniyatlarini ortiqcha baholashi mumkin. Bu xatti-harakat, qoida tariqasida, boshqalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydi. Bu ulardagi o‘ziga bino qo‘yganlik darajasining ham yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Odatda bunday o‘smirlar xudbin va mag‘rur bo‘ladilar. Chunki ular o‘zlarini har doim haq deb o‘ylaydilar. Hech bir inson ularni nohaq ekanliklariga ishonтира olmaydilar. Sinaluvchilarning natijalariga e‘tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, yuqori ko‘rsatkich ularda 21% va 24% ni tashkil qilganligi bilan ajralib turadi. Ular doimiy faoliyatlarida o‘ziga ishonadi. Ular har doim to‘g‘ri ish qilayapman, deb o‘ylaydilar. Qaysi holatda xato qilayotganlarini juda yaxshi biladilar. Ularga boshqa odamlarning fikri mutlaqo kerak emas.

Metodika bo‘yicha natijalarni o‘rtacha ko‘rsatkichiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 36% va 31% ni tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu ulardagi o‘ziga nisbatan ishonch darajasining o‘rtacha ekanligi bilan tavsiflanadi. Shaxsning o‘ziga, qobiliyatiga, axloqiy fazilatlariga va harakatlariga real baho berishi. Adekvat o‘z-o‘zini hurmat qilish o‘zingizga tanqidiy qarash va kuchli tomonlaringizni turli qiyinchilikdagi vazifalar va boshqalarning talablari bilan to‘g‘ri bog‘lash imkonini beradi. Shuningdek, sinaluvchilarning past ko‘rsatkich bo‘yicha natijalari 20% va 18% ni tashkil qilganligi ham o‘smir shaxsida o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatni nechog‘lik qaror topganligidan dalolat beradi. Bunday o‘smirlar guruhida o‘ziga ishonchidan ko‘ra ishonchsizlik kuchliroq. Bunday insonlar kimlarningdir maslahatlari bilan o‘zlariga ishonishlari mumkin. Ular har doim o‘zgalarning rag‘batiga ehtiyoj sezadilar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, juda past ko‘rsatkich o‘ziga xos talqinda namoyon bo‘lganligi bilan tavsiflanadi. O‘smirda o‘zini past baho - bu o‘smirning o‘zini etarli darajada kamsitishi. Bu o‘smirlik davridagi eng keng tarqalgan muammolardan biridir. Ko‘pchilik bu o‘smirlik davriga xos xususiyat deb hisoblashadi, ammo bu unday emas. O‘smirlarda ushbu muammoga alohida e‘tibor berilishi kerak, chunki keyingi davrlarda tuzatish mumkin emas. O‘smirlar orasida o‘zini-o‘zi tanqid qilishning yuqori darajasi ularga o‘zlarida ko‘plab salbiy fazilatlarni tan olishga va ulardan xalos bo‘lish zarurligini tushunishga imkon beradi. Tadqiqot natijalariga muvofiq ko‘rsatkichlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, xar ikkala sinf sinaluvchilar guruhida ham ahamiyatli farqlar ko‘zga tashlanadi. Unga ko‘ra, metodikaning birinchi shkalasi ichki haqqoniylik - «Ochiqlik» bo‘limlar bo‘yicha natijalar 22 va 24 foizni tashkil kilib, shaxs uchun ahamiyatga molik va anglash qiyin bo‘lgan o‘z-o‘ziga munosabat xulq-atvor va «Men» obrazining shunday jihatlari bilan bog‘lik bo‘limlardir. Bu ularni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilishlari bilan birga atrofda gilariga nisbatan shakllangan streotiplari bilan ham tavsiflanishi mumkin. Navbatdagi shkala “o‘z-o‘ziga ishonch” bo‘limlar bo‘yicha natijalar 36 va 30 foizni tashkil qilib, o‘zini hurmat qilishga arziydigan irodaviy, g‘ayratli, ishonchli shaxs sifatida o‘zini tasavvur qilish siymosini gavdalandiradi. «O‘z-o‘zini boshqarish» shkalasi shuni ko‘rsatadiki, natijalar 31 va 41 foizni tashkil qilib, faoliyat va sub’ekt shaxsiga taaluqli bo‘lgan faollik va natijalarning asosiy manbai bu uning o‘zidir.

**2-jadval****O'smir shaxsida o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimi bo'yicha natijalar**

No	Shkalalar	8-sinf	9-sinf
1	Ichki haqqoniylik	22%	24%
2	O'z-o'ziga ishonch	32%	35%
3	O'z-o'zini boshqarish	31%	41%
4	O'zi haqidagi shaxsiy fikrning aks ettirilganligi	44%	40%
5	O'z-o'zini qadrlash	44%	48%
6	O'z-o'zini qabul qilish	40%	38%
7	O'z-o'ziga bog'langanlik	26%	25%
8	Ichki nizolilik	25%	27%

Metodikaning «O'zi haqidagi shaxsiy fikrning aks ettirilganligi» shkalasi «Men» aksi, bo'limlari bo'yicha natijalar 44 va 40 foizni tashkil qilib, atrofidagi odamlar atrofidan o'ziga nisbatan kutilayotgan munosabat bilan bog'lik.

Sinaluvchilar guruhida «O'z-o'zini qadrlash» - shkalasi bo'yicha natijalar 44 va 48 foizni tashkil qilib, o'zini o'zi «Men»ini ruhiyat va ichki olamning boyligini ichki mezonlar bo'yicha hissiy jihatdan baholashni bildiradi.

O'smirlar o'rtasida «O'z-o'zini qabul qilish» bo'yicha natijalar 40 va 38 foizni tashkil qilib, yuqori ko'rsatkichlar o'ziga nisbatan do'stona munosabat o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash o'z reja va istaklarini ma'qullash, o'zini qanday bo'lsa shunday kamchiliklar bilan qabul qilishni anglatadi.

Metodikaning «O'z-o'ziga bog'langanlik» shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlari 26 va 25 foizni tashkil qilib, «Men» konsepsiyasining rigidligi, o'z-o'ziga bog'lanib qolinganlik va o'z-o'ziga nisbatan umumiy ijobiy munosabat ko'rinishida o'zgarishni istamaslikni anglatadi.

Sinaluvchilaridan olingan navbatdagi «Ichki nizolilik» shkalasi hisoblanadi. Mazkur shkala bo'yicha natijalar 25 va 28 foizni tashkil qilib, yuqori ko'rsatkichlar ichki nizolar ikkilanishlar, o'zini qo'llamaslik va aybdorlikni his qilish bilan bog'lik depressiv bezovtalik holatlarining mavjudligini bildiradi. Me'yoriy ko'rsatkichlar yuqori refleksiya, o'z-o'ziga chuqur kirib borish, o'z qiyinchiliklarini anglash, adekvat «Men» obrazi va chetlanishlarning yo'qligini ifodalaydi.

Metodika natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, o'smirlik davrida o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni tarkib topishi ularda atrofidagi insonlar jamoasiga hamda shaxsning o'zining ichki holat va xususiyatlarini anglash darajasi bilan belgilanishi mumkin. Shuningdek, o'z-o'ziga nisbatan ishonchning qaror topishi ulardagi o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlar tizimi bilan uzviy bog'liqdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'smir shaxsida o'z-o'ziga bo'lgan munosabat negizida o'ziga nisbatan hurmat, o'zini qadrlash kabi xususiyatlarini rivojlanishi ulardagi o'ziga nisbatan ishonchni tarkib topishiga yordam beradi. O'smir shaxsida o'zini o'zi anglashni tarkib topishi o'ziga nisbatan ishonchni ta'minlovchi omil hisoblanishi bilan bir qatorda o'smir shaxsida o'zini o'zi nazorat qilishni rivojlanganligi ularda o'ziga nisbatan ishonchni taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shuningdek, o'smir shaxsida o'zini o'zi boshqarish malakasini rivojlanishi ularda o'ziga nisbatan ishonchni qaror topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бодалев А. А. О взаимосвязи общения и отношения // Вопр. психол. 2004. 1. С. 122 - 126.
2. Дусмухамедова Ш. Салиева Д. Максимова Л. А. Соотношение уровня развития академической самостоятельности младших школьников с показателями учебной мотивации и стилем педагогической деятельности (на примере учащихся начальных школ Узбекистана) // Педагогическое образование в России» 2020г №2 стр.77-83
3. Dusmuxamedova Sh. Ijtimoiy-psixologik muhit -bola shaxsi rivojining omili sifatida// Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar 2022 №12